



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econferences.com

20th June 2025

ADVOKAT XIZMATIGA HAQ TO‘LASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Sadinov Shohboz Erali o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti, Magistratura va sirtqi ta‘lim fakulteti,

“Advokatlik faoliyati” yo‘nalishi magistranti, Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: shaxbooz2001@gmail.com

Tel: +998 93 667 11 66

Annotatsiya:

Ushbu tezisdagi advokat xizmatlariga haq to‘lash tartibi va uning amaldagi me‘yoriy-huquqiy asoslari o‘rganiladi hamda mazkur sohada tizimni yanada takomillashtirish zaruriyati asoslab beriladi. Advokatlik faoliyatining samaradorligini ta‘minlash, yuridik xizmatlar sifati va fuqarolarning huquqiy himoya darajasini oshirishda adolatli va iqtisodiy asoslangan to‘lov tizimining o‘rni beqiyosdirligini inobatga olgan holda, tezisdagi xorijiy mamlakatlarda advokat xizmatiga haq to‘lash amaliyoti ko‘zdan kechirilib, ularning ijobiy tajribalaridan misollar keltiriladi.

Tezisni yoritishda qonunchilik hujjatlari, ilmiy manbalar, huquqshunos olimlar fikrlaridan foydalaniladi. Shuningdek, O‘zbekiston qonunchiligidagi mavjud kamchiliklar o‘rganilib, advokat xizmatlari uchun minimal stavkalarni belgilash, shaffoflikni ta‘minlash, standartlashtirilgan shartnomalar joriy etish, davlat tomonidan kam ta‘minlangan fuqarolarga subsidiya va grantlar berish orqali yuridik yordam ko‘rsatishni kengaytirish kabi muhim takliflar keltiriladi. Mazkur takliflar advokatura tizimining barqaror rivojlanishi va ijtimoiy adolatning ta‘minlanishiga bir muncha hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: advokatlik xizmati, yuridik yordam, haq to‘lash tartibi, tarif stavkalari, davlat hisobidan yordam, xorijiy tajriba.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th June 2025

OPPORTUNITIES FOR IMPROVING THE PROCEDURE FOR PAYING FOR LAWYER SERVICES

Sadinov Shohboz Erali o'g'li

Tashkent State University of Law, Faculty of Master's and Distance Education,
Master's student in the field of "Advocacy," Tashkent, Uzbekistan

E-mail: shaxbooz2001@gmail.com

Tel: +998 93 667 11 66

Abstract:

This thesis examines the procedure for paying for legal services and its current regulatory framework, and substantiates the need for further improvement of the system in this area. Considering the unparalleled role of a fair and economically justified payment system in ensuring the effectiveness of advocacy, improving the quality of legal services, and enhancing the level of legal protection for citizens, the thesis reviews the practice of paying for legal services in foreign countries and provides examples of their positive experiences.

Legislative documents, scientific sources, and the opinions of legal scholars are used to illuminate the thesis. Also, the existing shortcomings in the legislation of Uzbekistan were studied, and important proposals were made, such as establishing minimum rates for lawyer services, ensuring transparency, introducing standardized contracts, and expanding the provision of legal assistance by providing subsidies and grants to low-income citizens by the state. These proposals will contribute to the sustainable development of the advocacy system and ensuring social justice.

Keywords: legal services, legal aid, payment procedure, tariff rates, state-funded assistance, foreign experience.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri — advokatura institutidir. So'nggi yillarda huquqiy islohotlarning jadallashuvi fuqarolarning yuridik xizmatlarga, xususan advokat xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini ortishiga sabab bo'ldi. BMTning Jinoiy odil sudlov tizimlarida huquqiy yordam



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th June 2025

olish bo'yicha tamoyillari va ko'rsatmalari [6]ga ko'ra, huquqiy yordam olish imkoniyati inson huquqlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston sharoitida advokat xizmatlari uchun haq to'lash tizimining shaffof va adolatga asoslangan bo'lishi dolzarb masalalardan biridir.

Advokatlik faoliyati — jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni malakali yuridik yordam bilan ta'minlash orqali jamiyatda adolat, qonuniylik va tenglik tamoyillarini qaror toptirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, advokat xizmatiga haq to'lash tartibi nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Professor Lawrence M. Friedman o'zining "Legal Culture and Legal Change" asarida advokat xizmatlariga haq to'lash tizimini huquqiy madaniyat va jamiyat barqarorligi bilan bog'laydi va shunday ta'kidlaydi:

"Yuridik xizmatlar uchun to'lovlar tizimi va ulardan foydalanish imkoniyati nafaqat huquqiy vakillikning sifatini, balki jamiyatda adolat va haqqoniylik haqidagi jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi asosiy omil hisoblanadi". [1; 124-bet]

O'zbekiston Respublikasida advokat xizmatlari ko'rsatish va unga haq to'lash tartibi qonunchilikda belgilangan bo'lsa-da, amaliyotda mazkur tartibda bir qator kamchilik va muammolar kuzatilmoqda. Xususan, ayrim hollarda advokat xizmatlari narxining yuqoriligi sababli aholining kam ta'minlangan qatlamlari malakali yuridik yordamdan foydalana olmayapti. Shuningdek, advokat xizmatlariga to'lov miqdorining yagona tartibga solinmaganligi va bepul yuridik yordam mexanizmlarining sust ishlashi ushbu sohada islohot zaruriyatini ko'rsatadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining barcha qatlamlari uchun yuridik xizmatlardan foydalanish imkonini beruvchi maxsus tizimlar (masalan, subsidiya, grant, davlat kafolatlari) yo'lga qo'yilgan. Bu esa, jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi.

Mazkur tezida amaldagi to'lov tartibi, xorijiy davlatlar tajribasi, mavjud muammolar va takomillashtirish imkoniyatlari ilmiy-uslubiy yondashuv asosida tahlil qilinadi.

Muhokama va natijalar. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida advokat xizmatlari, ularning ko'lami va haq to'lash tartibi bo'yicha muayyan normalar



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econferences.com

20th June 2025

mavjud. Jumladan, “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunning 9 prim 1-moddasida [4], advokatlik faoliyati uchun to‘lov ishonch bildiruvchi shaxs bilan advokat o‘rtasidagi yuridik bitim(shartnoma) asosida belgilanadi deyilgan. Bu normalar advokat faoliyatining erkinligini ta‘minlaydi, biroq, ayni paytda, xizmat narxlarining turlicha bo‘lishiga sabab bo‘layotgan omillardan hisoblanadi. Qonunchilikda advokat xizmatlari uchun minimal yoki maksimal stavkalar belgilab qo‘yilmagan. Bu esa narxlar muvozanatini ta‘minlashda muammolar keltirib chiqarmoqda.

Advokat xizmatlariga haq to‘lash tizimi bo‘yicha bir nechta dolzarb muammolar mavjud:

Birinchidan, advokat xizmatlari narxining oshib borayotganligi xizmat sifati bilan har doim mos kelmaydi. O‘z navbatida, bu ishonchsizlikka sabab bo‘ladi va aholining yuridik xizmatlarga bo‘lgan ishonchini kamayishiga turtki bo‘ladi.

Ikkinchidan, qonunchilikda advokatlik xizmatlari uchun to‘lov miqdorining aniq belgilangan tizimi mavjud bo‘lmaganligi uchun ishonch bildiruvchi shaxslar ba‘zida xizmat ko‘rsatish hajmi va narxi o‘rtasida muvozanatni baholay olishmaydi, bu esa ayni paytda adolatsizlikka olib keladi.

Shu bois, advokat xizmatiga haq to‘lashning aniq va adolatli tizimini yaratish – bugungi kun huquqiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim.

Rivojlangan davlatlarda advokat xizmatlariga haq to‘lash tartibi nafaqat bozor mexanizmlari asosida, balki davlat tomonidan tartibga solinadigan tizimlar bilan mustahkamlanadi. Masalan, AQSh, Buyuk Britaniya va Germaniyada yuridik yordam sohasida “legal aid” deb nomlangan davlat tomonidan moliyalashtiriladigan tizimlar ishlab chiqilgan.

AQShda Kongress tomonidan 1974-yilda tashkil etilgan “Legal Services Corporation” [7] kabi tashkilotlar mavjud bo‘lib, ular kam ta‘minlangan aholi qatlamiga fuqarolik huquqi sohasida yuridik yordam ko‘rsatishni moliyalashtiradi. Ushbu tizim orqali odamlar bepul yoki arzonlashtirilgan narxlarda advokat yordami olish imkoniyatiga ega.

Buyuk Britaniyada esa davlat tomonidan moliyalashtiriladigan advokatlik xizmatlari orqali huquqiy yordam olish imkoniyatini kengaytirish maqsadida 2013-yil aprelda “Legal Aid Agency” [8] tashkil etilgan. Yuridik yordam agentligi Adliya vazirligi homiyligidagi Ijroiya agentligi hisoblanadi. Ijroiya agentligi sifatida LAA



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econferences.com

20th June 2025

ma'muriy jihatdan Adliya vazirligidan mustaqil, ammo qonuniy jihatdan uning tarkibiy qismi hisoblanadi.

LAAning asosiy vazifasi 2012-yildagi Huquqiy yordam, hukm chiqarish va huquqbuzarlarni jazolash to'g'risidagi qonun (LASPO) ning tegishli qoidalarini inobatga olgan holda Angliya va Uelsda yuridik yordam xizmatlarini tashkil etish va boshqarishdir. LAAning maqsadi Angliya va Uelsda fuqarolik va jinoiy huquqiy yordam hamda maslahatlardan adolatli, tezkor va samarali foydalanishni ta'minlash uchun yuridik xizmat ko'rsatuvchilar bilan hamkorlik qilishdir. LAA butun adliya tizimi doirasida, jamiyatning eng zaif qatlamlari ham qo'shilgan holda, xizmatlardan foydalanuvchi har bir kishining ehtiyojlarini qondirish uchun faoliyat olib boradi.

U yerda yuridik yordam ko'rsatishning standartlari va to'lov tizimi qat'iy nazorat ostida bo'lib, xizmatlarning sifati ta'minlanadi.

Germaniyada advokatlik faoliyati uchun to'lov stavkalari "Advokatlarning mehnatiga haq to'lash to'g'risida"gi Qonun [5] bilan belgilangan bo'lib, mijozlar va advokatlar o'rtasida kelishuvda oshiqcha to'lovlar oldi olinadi. Bu tizim advokatlar uchun adolatli raqobat va ishonch bildiruvchi shaxslar uchun sifatli xizmat kafolatini yaratadi.

Xorijiy davlatlar tajribasi ko'rsatadiki, advokat xizmatlariga haq to'lash tizimini takomillashtirishda davlatning faol ishtiroki zarur. Ushbu yondashuv xizmatlarning sifatini oshirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish va adolatli huquqiy yordam tizimini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Bu borada huquqshunos Peter W. Hogg "Constitutional Law of Canada" asarida davlat tomonidan moliyalashtiriladigan yuridik yordamning ijtimoiy himoyadagi ahamiyatini shunday ta'kidlaydi:

"Yuridik yordam shunchaki ijtimoiy ta'minot chorasi bo'lmay, balki qonun oldidagi tenglikni va sudlardagi mazmunli ishtirokni kafolatlovchi konstitutsiyaviy adolatning poydevoridir". [2; 207-bet]

Advokat xizmatlariga haq to'lash tartibini takomillashtirish uchun avvalo qonunchilikni takomillashtirish lozim. O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonunida xizmat haqi bo'yicha minimal va maksimal stavkalarni belgilash tartibi yo'qligi sohani tartibga solishda bo'shliq yaratmoqda. Shu sababli, qonunchilikka advokatlik xizmatlari uchun minimal stavkalar tizimini joriy etish ko'rinishida o'zgartirish kiritilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th June 2025

o‘zgarish xizmat narxining standartlari va sifatining kafolatini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Advokat xizmatlarining ijtimoiy ahamiyatini inobatga olgan holda, davlat tomonidan yuridik yordam ko‘rsatish tizimini kengaytirish va takomillashtirish zarur. Buning uchun davlat va nodavlat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirib, yuridik yordam markazlarini tashkil etish mumkin. Qolaversa, advokat xizmati uchun grantlar, subsidiya joriy etish orqali sohani rivojlantirishga erishiladi.

Yana shuni ta’kidlash joizki, advokat xizmatlarining sifatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashda jamoatchilik nazorati va raqamlashtirishning roli katta. Shu sababli ishonch bildiruvchi shaxslarga advokatlarning xizmatlaridan foydalanishni yanada qulayroq bo‘lishini ta’minlash va foydalanilgan xizmatlarni o‘z o‘rnida baholay olishlari uchun onlayn platformalar tashkil etilishi zarur. Yuridik sohada raqamlashtirishning ahamiyati bo‘yicha olim Daniel J. Solove “Understanding Privacy” kitobida:

“Raqamli texnologiyalar yuridik xizmatlarni tubdan o‘zgartirib, ulardan foydalanish imkoniyatini oshirdi, xarajatlarni kamaytirdi va shaffoflikni kuchaytirdi. Onlayn platformalarning joriy etilishi huquqiy yordamni demokratlashtirdi, uni chekka hududlarda yashovchi va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari uchun yanada qulayroq qildi” degan edi. [3; 156-bet]

Xulosa. Advokat xizmatlariga haq to‘lash tartibini takomillashtirish orqali O‘zbekistonda adolatli huquqiy yordam tizimini yanada mustahkamlanishiga erishiladi. Buning uchun qonunchilikni modifikatsiya qilish, davlat tomonidan ko‘maklashish, raqamlashtirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish muhimdir. Xorijning rivojlangan mamlakatlaridagi tajribalar shuni ko‘rsatadiki, davlat tomonidan moliyalashtiriladigan yuridik yordam tizimini rivojlantirish, advokatlar uchun minimal va maksimal to‘lov tariflarini belgilash, shaffof va adolatli to‘lov mexanizmlarini yaratish hamda raqamlashtirish jarayonlarini kengaytirish — advokat xizmatlarini har tomonlama takomillashtirishda samarali yo‘llardir.

Ushbu yo‘nalishlarda amalga oshiriladigan islohotlar nafaqat advokatlar faoliyatini rivojlantiradi, balki fuqaro huquqlarining samarali himoyasini ta’minlashga xizmat qiladi.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfséries.com

20th June 2025

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Friedman, L. M. (2009). Legal Culture and Legal Change. Stanford University Press.
2. Hogg, P. W. (2014). Constitutional Law of Canada (5th ed.). Thomson Reuters.
3. Solove, D. J. (2008). Understanding Privacy. Harvard University Press.

Normativ huquqiy hujjatlar:

4. O‘zbekiston Respublikasi “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni.

Internet manbalari:

5. <https://www.gesetze-im-internet.de/rvg/>
6. https://www.unodc.org/documents/justice-and-prison-reform/UN_principles_and_guidelines_on_access_to_legal_aid.pdf
7. <https://www.lsc.gov/>
8. <https://www.gov.uk/government/organisations/legal-aid-agency>
9. <https://lex.uz/>